

TOG‘AY MURODNING “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” VA “BU DUNYODA O‘LIB BO‘LMAYDI” ROMANLARI BOSH QAHRAMONLARI : DEHQONQUL VA BOTIR FIRQA TABIATIDAGI O‘ZARO MUSHTARAKLIK VA NOMUTANOSIBLIK

Boboyorova Dilrabo Kamolovna

Buxoro xalqaro universiteti 1-bosqich magistri

BuxDPIAL ona tili adabiyot fani o‘qituvchisi

E-mail: diliboboyorova@mail.ru

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.12.2025

Revised: 30.12.2025

Accepted: 31.12.2025

KALIT SO‘ZLAR:

o‘zbek romanchiligi, milliy tafakkur, qahramon xarakteri, ruhiy ziddiyat, ijtimoiy muhit, dehqon psixologiyasi, firqa mafkurasi, milliy o‘zlik, ma’naviy qarama-qarshilik, mushtaraklik, nomutanosiblik, hayot falsafasi, adabiy tip, realizm, ijtimoiy tanqid.

Mazkur maqolada Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” va “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanlari bosh qahramonlari — Dehqonqul va Botir firqa obrazlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda har ikki qahramonning sovet davri ijtimoiy-siyosiy muhitida shakllangan xarakteri, ularni birlashtiruvchi mushtarak jihatlar hamda hayotga, insoniy qadriyatlarga va mafkuraga munosabatidagi nomutanosibliklar ochib beriladi. Dehqonqul obrazida yerga sadoqat va milliy o‘zlik, Botir firqa timsolida esa mafkuraga bo‘ysungan shaxs fojiasi yoritilib, yozuvchining inson va tuzum o‘rtasidagi ziddiyatni badiiy talqin etishdagi mahorati asoslab beriladi.

Tog‘ay Murod o‘zbek adabiyotida xalq ruhini, milliy tafakkurni va oddiy insonning ichki dunyosini teran badiiylilik bilan ochib bera olgan yozuvchilardan biridir. Uning qahramonlari ko‘pincha oddiy dehqonlar, mehnatkash insonlar bo‘lib, ular orqali yozuvchi xalqning sabr-toqati, e’tiqodi, hayotga munosabati va ma’naviy kuchini ko‘rsatadi. Mustaqillik adabiyoti

o'z nasrini yozuvchining ikki yirik asari: "Otamdan qolgan dalalar", "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanlari bilan boyitdi. "Otamdan qolgan dalalar" romani 1994 –yilda yozilgan bo'lib, asar "paxta ishi", "o'zbeklar ishi" qurboni bo'lgan Dehqonqulning hibsga olinishi bilan yakunlanadi. Garchi romanda aniq aytilmagan bo'lsa-da, O'zbekiston mustaqillikka erishishiga ishora qilinadi. Buni bosh qahramonning

Men qaytib kelaman!

Men yeti qavat yerni ostidan bo'lsa ham qaytib kelaman.

Men dalalarim deya, qaytib kelaman.

Meni dalalarim qaytarib keladi... jumlaridan ham bilish mumkin. Asarning bitilgan yili sifatida esa 1986-1991 –yillar ko'rsatiladi. Oradan 3 yil o'tib Tog'ay Murod yana bir ajoyib romanni yozishga kirishadi. Adibning ikkinchi romani "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" asaridir. Unda mustaqillik yillari haqida, aniqrog'i mustabid sho'ro tuzumi davrida yuqori lavozimlarda ishlagan, siyosiy tuzum o'zgarishi bilan asta-sekin chetga chiqib qolgan Botir firqaning ichki kechinmalari tilga olinadi

Ayniqsa, Botir firqa tilidan aytilgan quyidagi jumlar kishining hayotga bo'lgan e'tiborini yanada oshiradi.

Bu dunyoda o'lib bo'lmadi! Bu dunyoda yashab bo'ladi. Shu boisdan-da, bu dunyo otini hayot, deydi.

Bu dunyoga keldingmi? Endi yasha. Tishni tishga qo'yib yasha. Mushtni tugib-tugib yasha! Chidab-chidab yasha! Yashashni chidaganga chiqargan!"

Bu ikki asarni o'qigan kitobxon ko'z o'ngida turmush tarzi, dunyoqarashi bir-biriga mutlaqo o'xshamagan, ammo bir davrda yashagan ikki qahramon obrazi gavdalanadi

Ularning biri tuzumning yuqori mansabdorlaridan biri bo'lsa, ikkinchisi esa shu mansabdorlar qo'lidagi kichik bir brigadir. Lekin ikkala qahramon ham har qanday vaziyatda o'zligini saqlab qolishga harakat qilgan, oqibatini yo'qotmagan haqiqiy o'zbek farzandidir

"Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanda tasvirlangan voqealardan bilish mumkinki, sobiq ittifoq davrida ham hayot bir maromda kechmaydi. Ayniqsa, siyosiy boshqaruv ham. Bunga 1933-yil voqealari misolida bir kuzatadigan bo'lsak, 1956 –yildan keyingi biroz yengillik misolida yana bir marta guvoh bo'lishimiz mumkin. Ocharchilik vaqtida Botir firqa tiriklay o'ldiga chiqarib ko'mib yuborilayotgan ikki insonni saqlab qolish uchun o'z jonini xavf ostiga qo'yadi. Siyosiy bo'hronlar avj olgan bir paytda NKVD xodimlariga qarshi chiqib, hech bo'lmasa ikkita jabrdiydani tiriklayin ko'milishdan saqlab qoladi. Zero,

Umarali Normatov “Benazir badiiy obida yoxud asrlar g‘ami silsilasining intihosi” maqolasida aytganiday: “Botir firqa butun vujudi bilan firqa kommunistik e’tiqod odami bo‘lsa-da, qalbi tubida chin insoniy, milliy, umumbashariy, qolaversa, islomiy tuyg‘ular ham pinhona maskan tutgan”.

Ikkala asar qahramonlari shajarasiga e’tibor qaratamiz:

“Otamdan qolgan dalalar”

Jamoliddin ketmon – Oqposhsho istilosini ko‘rgan, lekin ko‘z yumgan

Aqrab qo‘rboshi – Qizillarga qarshi kurashgan, sobiq ittifoq ta‘biri bilan aytganda “bosmachi”, mustaqillik sharofati bilan baralla aytadigan bo‘lsak, milliy ozodlik kurashchisi

Dehqonqul- Sobiq ittifoq davri yetishtirgan minglab “baxtli” ishchilarning biri, tabiatan bo‘ysunuvchan, ismidagi qul so‘zi butun taniga singib ketgan obraz

Qulmat – Dehqonqulning farzandlaridan biri o‘z ta‘biri bilan aytganda “Kambag‘al dardmand”

Bu shajaradan shuni ko‘rish mumkinki, boboning e’tiborsizligi, o‘z huzuri-yu tinchi uchun o‘z vatanini tashlab ketishi, o‘g‘ilning bir o‘zi oqimga qarshi borishi va oxir-oqibat yutqazishi nabira ruhiyatida bo‘ysunuvchanlik, qullikni muhrlab qo‘ydi. Albatta, bunda sobiq SSSR davrida partiyaning olib borgan siyosatlari ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qo‘ymadi. Otani bolaga, bolani otaga, qarindoshlarni bir-biriga dushman qilishda sobiq tuzum shu qadar mukammal sxema ishlab chiqqan ediki, buni Dehqonqul qonida mavjud bo‘lgan erk, ozodlik tuyg‘usining yo‘qolib ketishidan ham bilish mumkin

Ikkinchi asar “ Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” asari qahramoni Botir firqaning kelib chiqishi esa quyidagicha bo‘lib, bu aynan sobiq tuzum siyosatiga mos keladigan avlodlar shajarasidir

Qodir qul

Xolmat malay

Eson xizmatkor

Botir qo‘shchi

Ko‘rib turganimizday, ittifoq o‘ziga odam tanlashda adashmaydi. Ular ta‘biri bilan aytganda, Botir firqa zulmatdan ziyoga olib chiqilgan haqiqiy siyosiy kadr. Ularning siyosiy maslagi bo‘yicha u partiyaning sodiq xizmatkori bo‘lishi kerak.

Ammo shuni ham unutmaslik kerakki, Botir firqa asar davomida har doim ham “ateist”, “rusparast” emas. U asar davomida buni bir necha marotaba isbotlaydi. Hali pensiyaga chiqmasdanoq u tizimdagi ayrim holatlarga nisbatan o‘z isyonini bildiradi. Buni tiriklayin

ko'mishga mahkum etilgan ona –bola misolida, xonaqohning eshigini bekitib, kinoteatr uchun kelgan eshik –deraza romlarini maktabga o'rnatishda qilgan tahabbuskorligi , qolaversa, nohaq jinnixonaga tashlangan yigit taqdiriga befarq bo'lmay qo'ldan kelgancha yordam bergani misolida ko'rishimiz mumkin. Agar odamda shijoat bo'lsa, u har qanday vaziyatda ham o'zligini yo'qotmaydi, qalbida ozgina isyon bo'lsa ham uni ro'yobga chiqardi. Afsuski, "Otamdan qolgan dalalar" romani bosh qahramoni ruhiyatida qalbida so'nib bo'lgan isyon , asar oxirigacha uyg'onmaydi. Shu befarqlik, shu ko'r-ko'rona sodiqlik, ayolining fojiali o'limiga, farzandining nogiron tug'ilishiga sabab bo'ladi. Bu kabi mute insonlar butun sobiq ittifoq bo'ylab yoyillgan edi deyish mumkin. Dehqonqul esa shu yoyilmaning bir tipik vakili.

Ammo har ikki roman qahramoni xarakterida o'zbekona soddalik, bag'rikenglik bilan bir qatorda biroz qitmirlikni ham kuzatish mumkin. Ayniqsa, Dehqonqulning baxmal so'zana, galstuk, hojatxona bilan bog'liq vaziyatlarda o'zini tutishi kitobxonning ko'z o'ngida jaydari o'zbek yigitini gavdalantirsa, "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" asari qahramoni Botir firqaning vatanparvarligi natijasida yonib ketgan yog' esa oddiy hayot bilan ishni aralashtirib yuborgan odamning ham ayanchli, ham kulgili holatini gavdalantiradi

Umuman olganda, Tog'ay Murod har ikkala romanda ham sovet tuzumi davrida yashagan o'zbek insonining ichki fojiasi, ruhiy sinishi va yashash uchun kurashini markazga qo'yadi.

Dehqonqul va Botir firqa — bir davr mahsuli, ammo ikki xil hayotiy pozitsiya egalaridir

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Xudoyberdiyev E. «Adabiyotshunoslikka kirish» ___T.: «Sharq» nashriyoti,2008
2. Quronov D. «Qalblarni larzaga slogan xirgoyi» ___<https://ziyouz.uz/author/davronbek/>
3. Togay Murod. «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi»___T.: «Zukko kitobxon»,2023
- 4.Umida Rasulova. Tog'ay Murod qissalari: asliyat va tarjima«Jahon adabiyoti» jurnali, 2019 yil 11-son